IQRO JURNALI , IQRO JOURNAL, ИКРО ЖУРНАЛИ
ISSN:2181-4341| wordlyknowledge.uz/index.php/iqro
**Volume 24. Issue 01. Oktabr, 2026**

UDK-37.047

# KASBGA YO‘NALTIRISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA XALQARO TAJRIBALARNING AHAMIYATI

**Qurbonova Baxtixon Qo‘chqarbayevna**
FarDU, pedagogika fanlari bo‘yicha
fan doktori, professor
**Xatamova Durdonaxon Bobobek qizi**
Farg’ona shahar 3-sonli maktab o’qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.23204276

**Annotatsiya:** Ushbu tadqiqotda, rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarning kasbga yo'naltirish tizimlaridagi muvaffaqiyatli tajribalar tahlil qilinadi. Xalqaro tajribalar asosida, kasbga yo'naltirishda mehnat bozorining talablariga javob berish, yoshlarni zamonaviy kasblarga tayyorlash va ularni malakali mutaxassislar sifatida shakllantirish uchun yangi yondashuvlar taklif etiladi. Maqola, shuningdek, kasbga yo'naltirish tizimini takomillashtirishda davlat siyosati, o'quv rejalari va professional rivojlanish strategiyalarining o'zaro integratsiyasini ta'kidlaydi. Xalqaro tajribalar, o'zgaruvchan mehnat bozoriga moslashish va yangi texnologiyalarni hisobga olishda muhim ahamiyatga ega bo'lib, bu tizimni global darajada yanada samarali qilish imkoniyatini yaratadi.. Shuningdek, Germaniya, AQSh va Yaponiya ta’lim tizimidagi ilg‘or tajribalar, dual ta’lim tizimi hamda kasbiy mahoratni shakllantirishga qaratilgan zamonaviy yondashuvlar tahlil qilingan.

**Kalit so‘zlar:** jahon ta’limi, dual ta’lim, Germaniya, AQSh, xalqaro tajriba, kasbiy mahorat, innovatsion yondashuvlar.

# ЗНАЧИМОСТЬ МЕЖДУНАРОДНОГО ОПЫТА ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ ПРОФОРИЕНТАЦИИ

**Аннотация:** В исследовании анализируются успешные практики стран с развитыми и развивающимися экономиками в области профориентации. На основе международного опыта предлагаются новые подходы к подготовке молодежи к современным профессиям, соответствующими требованиям рынка труда, а также к формированию высококвалифицированных специалистов. В статье также подчеркивается важность интеграции государственной политики, учебных планов и стратегий профессионального развития для усовершенствования системы профориентации. Международный опыт имеет важное значение для адаптации к меняющемуся рынку труда и учёта новых технологий, что позволяет сделать систему профориентации более эффективной на глобальном уровне. Также были проанализированы лучшие практики системы образования Германии, США и Японии, дуальная система образования и современные подходы, направленные на формирование профессиональных навыков.

**Ключевые слова:** мировое образование, дуальное образование, Германия, США, международный опыт, профессиональные навыки, инновационные подходы.

## THE IMPORTANCE OF INTERNATIONAL EXPERIENCES IN INCREASING THE EFFICIENCY OF CAREER GUIDANCE

**Abstract:** The research analyzes successful practices from both developed and developing countries in the field of career orientation. Based on international experience, new approaches are proposed for preparing youth for modern professions in line with labor market demands and for shaping highly qualified specialists. The article also emphasizes the importance of integrating state policies, curricula, and professional development strategies to improve the career guidance system. International experience is crucial for adapting to the changing labor market and accounting for new technologies, thus making the career guidance system more effective on a global scale.It also analyzes the best practices of the educational systems of Germany, the USA and Japan, the dual education system and modern approaches to the formation of professional skills.

**Keywords:** world education, dual education, Germany, USA, international experience, professional skills, innovative approaches .

### KIRISH

Yurtimiz ta’limi keng qamrovli islohotlarni hamda qayta qurish ishlarini amalga oshirishdek murakkab jarayonni boshidan kechirdi va kechirmoqda. Ulardan ko’zda tutilgan maqsad maktab faoliyatini demokratlashtirish, uning insonparvarlik faoliyatini rivojlantirish, shu asosida o’quv tarbiya ishlari mazmunini, uning shakl va uslubini kompleks yangilash va yanada takomillashtirishdan iborat. Davlatimiz rahbari mamlakatda kadrlar muammosi mavjudligini barcha sohalarga islohotlar sur’atiga mos zamonaviy mutaxassislar kerakligini aytgan edi. Shu maqsadda butun ta’lim tizimini takomillashtirmoqda va o’z asarlarida “Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma’naviy salohiyatga ega bo’lib, dunyo miqyosida o’z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo’sh kelmaydigan insonlar bo’lib kamol topishi, baxtli bo’lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizninng bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz” [1] deb ta’kidlab o’tmoqda.

Kasbga yo’naltirish samaradorligini oshirishda xalqaro tajribalarni o’rganish va ularni o’z sharoitlarimizga moslashtirish juda muhimdir. Kasbga yo’naltirish jarayonida innovatsion yondashuvlar va zamonaviy metodlarni qo’llash orqali yoshlarni mehnat bozorida muvaffaqiyatli bo’lishlariga yordam berishi mumkin. Xalqaro tajribalar asosida kasbiy pedagogikani rivojlantirishda Amerika, Germaniya va Yaponiya ta’lim tizimlariga tayanish maqsadga muvofiq bo’ladi.

Maqolaning asosiy maqsadi – kasbga yo‘naltirish samaradorligini oshirishda xalqaro tajribalarni tahlil qilish va ularni O‘zbekiston sharoitida tatbiq etish imkoniyatlarini o‘rganishdan iborat.

[1]“ Erkin va farovon demokratik O’zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz” Toshkent- “O’zbekisyon”-2016

**ADABIYOTLAR TAHLILI**

Schuetze va Sweet tomonidan yozilgan “Integrating Work and Learning: Global Perspectives on Dual Education Systems” asari dual ta’lim tizimining nazariy va amaliy jihatlarini yoritadi. Nazariy va amaliy ta’limning uyg‘unligi: Dual tizimda talabalarga nafaqat nazariy bilim berish, balki amaliyot o‘tkazish orqali ularning kasbiy ko‘nikmalarini mustahkamlash imkoniyati yaratiladi. Ish beruvchilar bilan hamkorlik: Ish beruvchilar va ta’lim muassasalari o‘rtasidagi hamkorlikning kasbiy malaka oshirishga qo‘shgan hissasi ko‘rsatiladi. Ushbu asar xalqaro tajribalarni o‘rganishda metodologik asos sifatida xizmat qilishi va kasbga yo‘naltirish tizimining samaradorligini oshirish uchun dual ta’lim modelining ahamiyatini tasdiqlaydi.

Mazkur maqola tahliliy tadqiqot uslubida olib borilgan bo‘lib, unda quyidagi manbalarga asoslangan:

Empirik tahlil – xalqaro ta’lim tizimlari va kasbga yo‘naltirish modellarining samaradorligi o‘rganildi.

Taqqoslash usuli – Germaniya, AQSh va Yaponiya ta’lim tizimlari bilan O‘zbekiston tajribasi qiyoslandi.

Normativ-huquqiy tahlil – O‘zbekiston ta’lim tizimiga oid davlat hujjatlari va statistik ma’lumotlar ko‘rib chiqildi.

**TADQIQOT METODOLOGIYASI**

**1. Tadqiqot maqsadi:** Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi kasbga yo'naltirish tizimining samaradorligini oshirishda xalqaro tajribalarning ahamiyatini o‘rganishdir. Tadqiqotda boshqa mamlakatlarning tajribalari va ularning kasbga yo'naltirish sohasida qo‘llanilayotgan innovatsion metodlari tahlil qilinadi. Bu orqali O'zbekistondagi kasbпa yo'naltirish tizimini takomillashtirish yo‘llari aniqlanadi.

**2. Tadqiqot vazifalari:**

Kasbga yo'naltirishning samaradorligini oshirishda xalqaro tajribalarni o‘rganish.

Turli mamlakatlarda kasbga yo'naltirish tizimining muvaffaqiyatli modellarini tahlil qilish.

O'zbekistondagi mavjud kasbga yo'naltirish tizimini xalqaro tajribalar bilan taqqoslash.

Kasbga yo'naltirishda innovatsion texnologiyalar va metodlardan foydalanishning ahamiyatini aniqlash.

**3. Tadqiqot metodlari:**

Literatura tahlili: Kasbga yo'naltirish va ta'lim tizimidagi xalqaro va milliy manbalar, ilmiy maqolalar va kitoblar orqali kasbga yo'naltirish tizimining samaradorligini oshirishda qo‘llanilayotgan metodlar o‘rganiladi.

Komparativ tahlil: Xalqaro tajribalarni taqqoslash orqali turli mamlakatlarda amalga oshirilgan muvaffaqiyatli kasbga yo'naltirish modellarini o'rganish. Bu usul, kasbga yo'naltirishni takomillashtirishda qanday yondashuvlar samarali bo‘lishi mumkinligini aniqlashga yordam beradi.

So'rovlar va intervyular: Kasbga yo'naltirish sohasidagi mutaxassislar, o‘qituvchilar, talabalar va o‘quv markazlari bilan intervyular o‘tkazish. Bu tadqiqot maqsadiga erishishda ahamiyatli bo‘lishi mumkin.

Kvantitativ tahlil: So‘rovlar, statistika va o‘quv dasturlarining samaradorligini o‘lchash uchun raqamli ma'lumotlar tahlil qilinadiю

**4. Tadqiqotning ilmiy va amaliy ahamiyati:**

Kasbga yo'naltirish tizimini takomillashtirishga oid yangi yondashuvlar va metodlarni aniqlash.

Xalqaro tajribalardan foydalanish orqali O'zbekistondagi kasbga yo'naltirish tizimini global talablarga moslashtirish.

Kasbga yo'naltirishni samarali tashkil etish, mehnat bozorida raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga yordam beradi.

**5. Tadqiqotning kutilyotgan natijalari**: Tadqiqot natijalari, kasbga yo'naltirish tizimining samaradorligini oshirish uchun xalqaro tajribalarni o‘zbekistondagi sharoitga moslashtirish bo‘yicha amaliy takliflar ishlab chiqilishiga xizmat qiladi. Bu o‘zgarishlar milliy ta'lim tizimining sifatini oshirishga yordam beradi va mehnat bozoridagi talablar bilan yaxshiroq uyg‘unlashadi.

Kasbga yo‘naltirish jarayonida innovatsion yondashuvlar va zamonaviy metodlarni qo‘llash yoshlarning mehnat bozorida muvaffaqiyat qozonishlariga yordam beradi. Xalqaro tajribaga tayanib, Germaniya, AQSh va Yaponiya ta’lim tizimlarining o‘ziga xos xususiyatlarini tahlil qilish muhimdir.

Germaniya tajribasi: Dual ta’lim tizimi Germaniyada kasbga yo‘naltirish tizimi dual ta’lim modeliga asoslangan bo‘lib, bu nazariy bilim va amaliy tajribani uyg‘unlashtiradi. Dual ta’lim tizimi quyidagi jihatlari bilan ajralib turadi: Nazariy va amaliy ta’lim uyg‘unligi – talabalar ta’lim olish bilan birga real ish muhitida tajriba orttiradilar. Ish beruvchilar bilan hamkorlik – kompaniyalar talabalarni o‘qitish jarayonida faol ishtirok etadilar. Kasbiy ixtisoslik bo‘yicha keng tanlov – talabalar muhandislik, xizmat ko‘rsatish, tibbiyot kabi sohalarni chuqur o‘rganish imkoniga ega.

AQSh tajribasi: Karyera yo‘naltirilgan ta’lim AQShda kasbga yo‘naltirish tizimi ta’limning barcha bosqichlarida amalga oshiriladi. Maktablarda karyera maslahati xizmatlari keng rivojlangan bo‘lib, talabalar o‘z qiziqishlari va qobiliyatlariga mos keladigan kasbni tanlashda yordam oladilar.

AQSh ta’lim tizimining muhim jihatlari:

- Karyera rejalashtirish dasturlari – o‘quvchilar maktabdan boshlab o‘z kasbiy yo‘nalishlarini belgilaydilar.
- Sanoat bilan integratsiya – universitetlar sanoat bilan hamkorlik qilib, talabalarni real ish muhitiga tayyorlaydi.
- Ochiq ta’lim tizimi – talabalar o‘z yo‘nalishlarini o‘zgartirish imkoniyatiga ega.

Yaponiya tajribasi: Ish beruvchilar bilan hamkorlik. Yaponiyada kasbga yo‘naltirish tizimi uzoq muddatli istiqbolga asoslangan bo‘lib, ta’lim jarayoni ish beruvchilar bilan uzviy bog‘langan. Maktab bitiruvchilari kompaniyalar bilan oldindan shartnomalar imzolaydi va uzoq muddatli bandlikka tayyorlanadi.

Yaponiya tajribasining asosiy jihatlari:

- Korporativ ta’lim tizimi – kompaniyalar xodimlarni o‘z ehtiyojlariga mos ravishda tayyorlaydi.
- Hayot davomida o‘qitish – ishchilarga doimiy ravishda malaka oshirish imkoniyati yaratiladi.
- Maktab va ish o‘rinlari o‘rtasidagi bog‘liqlik – bitiruvchilar oldindan ishga joylashish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Xalqaro tajribalarning tahlili shuni ko‘rsatadiki, kasbga yo‘naltirish samaradorligini oshirish uchun quyidagi omillar muhim:

**Dual ta’lim tizimini rivojlantirish** – Germaniya tajribasidan kelib chiqib, nazariy va amaliy ta’lim uyg‘unligini ta’minlash.

**Kasbga yo‘naltirish bo‘yicha maslahat tizimini kuchaytirish** – AQSh ta’lim tizimi asosida o‘quvchilarga karyera rejalashtirish xizmatlarini kengaytirish.

**Ish beruvchilar bilan hamkorlikni rivojlantirish** – Yaponiya tajribasiga asoslanib, ta’lim jarayonini sanoat ehtiyojlariga moslashtirish.

O‘zbekiston sharoitida ushbu tajribalarni moslashtirish orqali kasbga yo‘naltirish jarayonini innovatsion tarzda tashkil etish mumkin.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Kasbga yo‘naltirish samaradorligini oshirishda xalqaro tajribalardan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Germaniya, AQSh va Yaponiya tajribasi shuni ko‘rsatadiki, kasbga yo‘naltirishda dual ta’lim tizimi, karyera rejalashtirish va ish beruvchilar bilan hamkorlik muhim o‘rin tutadi.

O‘zbekiston sharoitida ushbu tajribalarni moslashtirish va ta’lim tizimiga integratsiya qilish mehnat bozorining talablariga mos keladigan yuqori malakali kadrlarni tayyorlashga yordam beradi. Shu sababli, xalqaro tajribalar asosida innovatsion kasbga yo‘naltirish dasturlarini ishlab chiqish va tatbiq etish dolzarb masala hisoblanadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Schuetze, H.G., & Sweet, R. (2019). Integrating Work and Learning: Global Perspectives on Dual Education Systems. London: Routledge.
2. World Economic Forum (2022). The Future of Jobs Report 2022. Geneva: WEF.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Kasb-hunar ta’limini rivojlantirish to‘g‘risida”gi qarori, 2021.
4. O‘zbekiston Respublikasi Mehnat bozori rivojlanishining 2023-yilgi statistik tahlili. O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi.
5. Internet manbalari.